huquqlari kafolatlari hamda salohiyatini mustahkamlash maqsadida xalqaro, mintaqaviy va milliy darajada harakatlarni kuchaytirish hisoblanadi. Mazkur maqsadga erishish yo'lida davlat – xususiy sektor – nodavlat notijorat tashkilotlarining samarali hamkorligini yo'lga qo'yish nazarda tutiladi. Hujjatda butun dunyoda yosh toifasini 18 yoshdan 30 yoshgacha etib belgilash orqali yoshlarning yosh xususiyatlari bo'yicha yagona xalqaro standartini qaror toptirish hamda yoshlarga oid siyosat sohasida davlatlarning xalqaro majburiyatlarini o'rnatish ko'zlangan.

Yoshlar huquqlariga oid ushbu global tashabbus mintaqaviy miqyosda ham ilgari surildi. Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) doirasida 2019-yilning 6–7-noyabr kunlari Jidda shahri (Saudiya Arabistoni)da tashkilotning Inson huquqlari bo'yicha deklaratsiyasi loyihasini muhokama qilish bo'yicha hukumatlararo ishchi guruhining uchinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi. O'zbekiston Respublikasi delegatsiyasi mazkur deklaratsiya loyihasining muhokamasida faol ishtirok etib, O'zbekiston Prezidenti tashabbusi negizida loyihaga yoshlar huquqlari bo'yicha bir qator yangi normalar kiritishga muvaffaq bo'ldi.

Bundan tashqari, 2020-yil sentabr oyida bo'lib o'tgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida O'zbekiston Prezidenti "Pandemiyalar davrida davlatlarning ixtiyoriy majburiyatlari to'g'risidagi xalqaro kodeks"ni ishlab chiqish g'oyasini o'rtaga tashladi (President.uz, 2020). COVID-19 inqirozi tajribasidan kelib chiqqan holda global pandemiyalar natijasida yuzaga keladigan xalqaro vaziyat sharoitida xalqaro hamkorlik va davlatlarning ixtiyoriy majburiyatlari ijrosini xalqaro huquqiy tartibga solishga qaratilgan mazkur tashabbus ham aksariyat davlatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Yangi O'zbekistonning xalqaro huquqiy tashabbuslari universal va mintaqaviy tashkilotlar doirasida tobora kengayib bormoqda. Xususan, BMT Bosh Assambleyasining 2018-yilning 12-dekabrida o'tkazilgan yalpi majlisida "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasi qabul qilindi (United Nations General Assembly, 2018). O'zbekiston tomonidan ishlab chiqilgan hujjat loyihasi BMTning barcha a'zo davlatlari tomonidan bir ovozdan ma'qullandi. Mazkur rezolyutsiyani qabul qilish tashabbusi 2017-yil sentyabr oyida bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasining Nyu-Yorkdagi 72-sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan edi (President.uz, 2017).

Rezolyutsiyada BMTning barcha a'zo davlatlari inson huquqlari hamda dinlar va e'tiqodlar xilma-xilligini hurmatga qilishga asoslangan holda barcha darajadagi tinchlik va bag'rikenglik madaniyatini rag'batlantirish yo'lida global muloqotni mustahkamlash uchun xalqaro sa'y-harakatlarni kuchaytirishga chaqiriladi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi asosida qabul qilingan ushbu hujjat hozirga qadar turli dinlarga mansub jahon xalqlari o'rtasida ma'rifiy bag'rikenglik va tinchlik madaniyatini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Mazkur rezolyutsiyadan tashqari, o'tgan qisqa vaqt ichida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan O'zbekiston tashabbusi bilan ishlab chiqilgan yana bir qator rezolyutsiyalar qabul qilindi. "Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash", "Markaziy Osiyoda barqaror turizm va barqaror rivojlanish", "Orolbo'yini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi sifatida e'lon qilish", "Markaziy va Janubiy Osiyoda o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash", "Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadallashtirishda parlamentlar rolini kuchaytirish", "Markaziy Osiyo global iqlim tahdidlari qarshisida: barqaror rivojlanish va farovonlik yo'lida mintaqaviy birdamlikni mustahkamlash", "2027 yil – Xalqaro barqaror va yashovchan turizm yili", "Markaziy Osiyo davlatlarining giyohvandlik bilan bog'liq muammolarni samarali hal etish va bartaraf etish uchun yagona front bo'lib harakat va hamkorlik qilishga tayyorligi", 10 iyunni "Xalqaro sivilizatsiyalar o'rtasidagi muloqot kuni", 2027–2036-yillarni "O'rmonzorlashtirish va o'rmonlarni tiklash Harakatlar dekadasi", 29-aprelni "Xalqaro zilzila qurbonlarini xotirlash kuni" deb e'lon qilish to'g'risidagi rezolyutsiyalar shular jumlasidandir.

Mazkur rezolyutsiyalarning aksariyati jahon hamjamiyatining e'tiborini Markaziy Osiyodagi muammolarga qaratish va ularga yechim topishda mintaqaviy va global sa'y-harakatlarni birlashtirishga qaratilgan. Xususan, BMT Bosh Assambleyasi 2023-yil 19-dekabrda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan

ishlab chiqilgan "Markaziy Osiyo global iqlim tahdidlari qarshisida: barqaror rivojlanish va farovonlik yo'lida mintaqaviy birdamlikni mustahkamlash" rezolyutsiyasini bir ovozdan qabul qildi (United Nations General Assembly, 2023).

Rezolyutsiya matnini ishlab chiqish va kelishish bo'yicha hukumatlararo muzokaralar jarayoni BMTning Nyu-Yorkdagi qarorgohida 2023-yilning oktyabr-noyabr oylarida bo'lib o'tdi. Rezolyutsiya hammualliflari qatoriga Germaniya, Shveysariya, Turkiya, Xitoy, Singapur, Vengriya, Vyetnam, Ozarbayjon, Armaniston, Malayziya, Indoneziya, Misr, Iordaniya, Paragvay kabi BMTning barcha mintaqaviy guruhlarini qamrab olgan davlatlar kirdi. Rezolyutsiyada Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmanistonning atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi tashabbuslari Markaziy Osiyo davlatlari nomidan birgalikda taqdim etildi. Maslahatlashuvlarda dunyoning barcha qit'alaridan, jumladan, AQSH, Rossiya, Xitoy, Yevropa Ittifoqi, Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Kanada, Avstraliya, Saudiya Arabistoni, Misr, Argentina, Braziliya, Meksika kabi yuzdan ortiq davlatlarning ekspertlari faol ishtirok etdi.

Hujjat matnida O'zbekiston Prezidentining qator tashabbuslari, jumladan, Markaziy Osiyo uchun "yashil" kun tartibi va uning mintaqada barqaror rivojlanishga ko'maklashishdagi roli alohida qayd etilgan. Rezolyutsiya orqali BMTga a'zo davlatlar O'zbekistonning Xalqaro iqlim forumini 2024-yilda Samarqand shahrida o'tkazish tashabbusini ham ma'qullagan.

Orol dengizining qurishi oqibatlarini yumshatish borasidagi sa'y-harakatlarga e'tibor qaratilib, O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan tashkil etilgan BMTning Orolbo'yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sheriklik trast jamg'armasining faoliyatini kuchaytirish zaruriyati alohida ta'kidlangan. Shu bois xalqaro hamjamiyatga ushbu jamg'armani faol qo'llab-quvvatlashni davom ettirish to'g'risida murojaat yo'llangan.

Rezolyutsiyada cho'llanish va erlarning degradatsiyasiga qarshi kurashda innovatsion usullar va yangi texnologiyalarni joriy etish muhimligi qayd etilgan hamda Markaziy Osiyoda iqlim va ekologik tahdidlarga samarali qarshi kurashish maqsadida barqaror qishloq xo'jaligi, bog'dorchilik, suv resurslaridan oqilona foydalanish, energiya samaradorligi, chiqindilarni qayta ishlash, barqaror turizmni rivojlantirish, "aqlli shaharlar" va barqaror transportni yaratish bo'yicha aniq vazifalar belgilangan.

Ushbu hujjatni mantiqiy davomi sifatida 2024-yilning 26-fevral kuni O'zbekiston tashabbusi asosida ishlab chiqilgan BMT Bosh Assambleyasining "2027 yil – Xalqaro barqaror va yashovchan turizm yili" nomli rezolyutsiyasi yakdil ovoz bilan ma'qullandi (United Nations General Assembly, 2024a). O'zbekiston Respublikasi tomonidan ilgari surilgan ushbu rezolyutsiyaga 80 dan ortiq a'zo mamlakat hammualliflik qildi.

Hujjat matnini muvofiqlashtirish bo'yicha maslahatlashuvlarda Rossiya, Xitoy Xalq Respublikasi, AQSH, Turkiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Yevropa Ittifoqi delegatsiyasi, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Misr, Braziliya, Argentina kabi yetakchi davlatlarning ekspertlari faol ishtirok etdi va rezolyutsiya mazmunini boyitishga muhim hissa qo'shdi.

Hujjatning bosh maqsadi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil oktyabrida Samarqandda bo'lib o'tgan BMTning Jahon sayyohlik tashkiloti Bosh Assambleyasi sessiyasida turizm sohasining yangi muammolar va zamonaviy xatarlar oldida barqarorligi va moslashuvchanligi borasida bildirilgan fikrlariga asoslangan.

Turli sivilizatsiyalarning boy madaniy merosini asrashda, tinchlik va bag'rikenglikni mustahkamlashda, xalqlarning qadriyatlarini hurmat qilishda turizmning muhim o'rin tutishi borasida davlatimiz rahbari tomonidan bayon etilgan tamoyillar ushbu rezolyutsiyada o'z aksini topgan.

Hujjatda ekologiya, bioxilma-xillikni asrash va atmosferaning ifloslanishini kamaytirish yo'lida "yashil" turizmni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Rezolyutsiya 2027-yilni "Xalqaro barqaror va yashovchan turizm yili" deb e'lon qiladi hamda BMTning Jahon sayyohlik tashkilotini hukumatlar, BMT tizimidagi tuzilmalar, mintaqaviy tashkilotlar bilan birgalikda yilni muvaffaqiyatli o'tkazish uchun kompleks choralar ishlab chiqishga chaqiradi.

Rezolyutsiya barcha manfaatdor tomonlarga barqaror va yashovchan turizmni kambag'allikni bartaraf etish, davlat va jamiyat hayotida ayollar, yoshlar, keksalar va nogironlarning ishtirokini rag'batlantirish, iqtisodiy imkoniyatlarni kengay-


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

tirish hamda munosib ish joylari va daromad manbalarini yaratishning muhim vositasi sifatida faol ilgari surishni tavsiya etadi. Hujjat bilan BMTning Jahon sayyohlik tashkilotiga ushbu rezolyutsiyaning amalga oshirilishi yuzasidan BMT Bosh Assambleyasining 2028-yilda boʻlib oʻtadigan 83-sessiyasida axborot taqdim etishi, bunda xalqaro yil qay darajada oʻtkazilganini baholashga alohida eʼtibor berishi topshirilgan.

Ekspertlarning fikricha, Oʻzbekiston tomonidan ilgari surilgan rezolyutsiya turizm sanoatining global darajada yangi bosqichga koʻtarilishini boshlab beradi (President.uz, 2024).

Markaziy Osiyo yoʻnalishida Oʻzbekiston tashabbusi bilan ishlab chiqilgan "Markaziy Osiyo davlatlarining giyohvandlik bilan bogʻliq muammolarni samarali hal etish va bartaraf etish uchun yagona front boʻlib harakat va hamkorlik qilishga tayyorligi" nomli yana bir rezolyutsiya 2024-yilning 4-iyun kuni BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilindi (United Nations General Assembly, 2024b).

Rezolyutsiya konsepsiyasi Oʻzbekiston Prezidentining 2021-yil sentyabr oyida BMT Bosh Assambleyasining 76-sessiyasidagi nutqi asosida ishlab chiqilgan. Ushbu sessiyada global muammoga aylangan giyohvandlikka qarshi global kurash tashabbusi ilgari surilgan edi. Rezolyutsiya qabul qilinishidan salkam bir oy oldin 2024-yil 6-may kuni "Oʻzbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qoʻyish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy taʼsirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi Prezident Farmoni bilan Oʻzbekiston Respublikasida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish boʻyicha 2024–2028-yillarga moʻljallangan milliy strategiya tasdiqlangan hamda ushbu sohadagi davlat siyosatining istiqbolli yoʻnalishlari belgilab berilgan edi.

Giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish boʻyicha milliy strategiyaning asosini tashkil etuvchi konseptual qoidalardan kelib chiqqan holda rezolyutsiyada giyohvandlik vositalari va prekursorlarining noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish boʻyicha global kompleks chora-tadbirlarni qabul qilish, strategik tashabbuslar va chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqish koʻzda tutiladi. Shuningdek, unda giyohvand moddalar bilan bogʻliq muammolarni hal etishda BMT, xalqaro moliya institutlari va boshqa manfaatdor tomonlarning Markaziy Osiyo davlatlariga koʻmagini kengaytirish muhimligi qayd etiladi. Shu tariqa, BMT Bosh Assambleyasining 2024-yil 4-iyundagi rezolyutsiyasi Oʻzbekiston Prezidentining 2024-yil 6-maydagi Farmoni bilan tasdiqlangan Milliy strategiya qoidalari bilan uygʻunlikda qabul qilindi. Bu, oʻz navbatida, Oʻzbekistonning giyohvandlikka qarshi kurash borasidagi milliy, mintaqaviy va xalqaro tashabbuslari uzviy bogʻliqlik va izchillik asosida ilgari surilayotganidan dalolat beradi (Norboyev, 2024). Xalqaro va mintaqaviy darajada samarali hamkorlik mexanizmlarini kengaytirish, narkotahdidlarga qarshi kurashishda yagona yondashuvlarni shakllantirish istiqbollari keyinchalik, BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik boʻyicha boshqarmasi bilan hamkorlikda 2026-yil 20–21-aprel kunlari Samarqand shahrida oʻtkazilgan "Transmilliy narkotahdidlarga qarshi kurashish: salomatlik, xavfsizlik va barqaror rivojlanish" mavzusidagi global forumda yanada chuqurroq muhokama qilindi.

2024-yil 7-iyun kuni BMT Bosh Assambleyasi Xitoy va Oʻzbekiston tomonidan ishlab chiqilgan "Xalqaro sivilizatsiyalar oʻrtasidagi muloqot kuni" deb nomlangan rezolyutsiyani bir ovozdan maʼqulladi (United Nations General Assembly, 2024c). Ushbu hujjat Oʻzbekiston Rahbarining BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasi (United Nations General Assembly, 2023) va ShHTning Samarqand sammitida bildirgan qarashlarini konseptual tarzda aks ettiradi (Tashkent Times, 2022). Unda dunyoda diniy va madaniy xilma-xillikning muhimligi eʼtirof etilgan holda, barcha madaniyatlar va tamaddunlarning insoniyat taraqqiyotiga qoʻshgan hissasi ijobiy baholangan. Turli madaniyatlar va sivilizatsiyalar oʻrtasida bagʻrikenglik, hurmat, muloqot va hamkorlik ragʻbatlantirish, sivilizatsiyalar xilma-xilligi qadriyatini anglash, oʻzaro hurmat, muloqot va global birdamlikni rivojlantirish maqsadida 10-iyun "Xalqaro sivilizatsiyalar oʻrtasidagi muloqot kuni" deb eʼlon qilingan.

Atrof-muhit muhofazasi va iqlim oʻzgarishlari masalasi Oʻzbekistonning global tashabbuslari kun tartibidan mustahkam joy olgan. 2025-yil 16-aprelda BMT Bosh Assambleyasi Oʻzbekiston tomonidan ilgari surilgan "Barqaror oʻrmon

xo'jaligi asosida o'rmonzorlashtirish va o'rmon tiklash bo'yicha Harakatlar Dekadasi" nomli rezolyutsiyani qabul qildi (United Nations General Assembly, 2025a). Rezolyutsiyaning hammualliflari 80 dan ortiq davlat bo'lib, ular dunyoning barcha mintaqalari vakillari, jumladan, Markaziy Osiyo davlatlari, Ozarbayjon, Rossiya, Braziliya, Avstriya, Germaniya, Finlyandiya, Portugaliya, Hindiston, Eron, Pokiston, BAA, Qatar, Bahraynni o'z ichiga oladi. Ushbu hujjat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asosiy tashabbuslari, jumladan, "Atrof-muhitni muhofaza qilish va "yashil" iqtisodiyot yili" dasturi, "Yashil makon" milliy loyihasi va "Markaziy Osiyo Yashil kamar" daraxt ekish aksiyasi g'oyalari asosida yaratilgan. Rezolyutsiya 2027–2036-yillarni "O'rmonzorlashtirish va o'rmon tiklash Harakatlar Dekadasi" deb e'lon qiladi, yanada ko'proq kuch va resurslarni mobilizatsiya qilishga chaqiradi, shuningdek, davlatlar va tashkilotlarga tegishli chora-tadbirlarni kuchaytirishni tavsiya etadi.

Xalqaro gumanitar inqiroz va tabiiy ofat jabrdiydalariga xayr-ehson va muruvvat ko'rsatish kabi o'zbek xalqining azaliy an'anasidan kelib chiqqan holda O'zbekiston tashabbusi bilan 2025-yil 29-aprelda BMT Bosh Assambleyasining Nyu-Yorkdagi bosh qarorgohida 29-aprelni "Xalqaro zilzila qurbonlarini xotirlash kuni" deb e'lon qilish to'g'risidagi rezolyutsiya qabul qilindi (United Nations General Assembly, 2025b). Hujjatga dunyoning turli mintaqalaridan 80 dan ortiq davlat hammualliflik qildi.

Ushbu rezolyutsiya O'zbekiston Rahbarining 2023-yil 16-mart kuni bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar tashkilotining navbatdan tashqari sammitidagi chaqiriqlari asosida ishlab chiqilgan. Unda O'zbekiston Prezidenti tomonidan favqulodda vaziyatlar bo'yicha ixtisoslashgan xalqaro tuzilmalar bilan amaliy hamkorlikni kuchaytirish zarurligiga alohida e'tibor qaratilgan.

Xalqaro zilzila qurbonlarini xotirlash kuni sanasi 1966-yil aprel oyida Toshkent shahrida sodir bo'lgan vayronkor zilzilaning 60 yilligi munosabati bilan belgilangan edi. Mazkur hujjatning amaliy natijasi sifatida Xalqaro zilzila qurbonlarini xotirlash kuni ilk bor 2026-yil 29-aprel kuni nishonlandi.

Shu o'rinda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan O'zbekiston tashabbusi asosida qabul qilinayotgan rezolyutsiyalarning 3 ta jihatini alohida ko'rsatib o'tish joizdir. Birinchisi – mazkur rezolyutsiyalarga O'zbekiston Prezidentining nufuzli xalqaro anjumanlardagi tashabbuslari, qarashlari va chaqiriqlari g'oyaviy-konseptual asos bo'lib xizmat qilmoqda. Ikkinchisi – O'zbekiston tomonidan ilgari surilayotgan loyihalar BMTning boshqa a'zo davlatlari tomonidan nafaqat qo'llab-quvvatlanmoqda, balki ular ham ushbu loyihalarga hammualliflik qilishmoqda. Masalan, 2024-yil 7-iyunda O'zbekiston tashabbusi asosida qabul qilingan A/RES/78/286-son rezolyutsiya loyihasi Xitoy Xalq Respublikasi bilan birgalikda ilgari surilgan holda unga BMTning 80 dan ortiq a'zo davlatlari hammualliflik qilishdi. Markaziy Osiyo yo'nalishidagi xalqaro tashabbuslar esa mintaqadagi barcha davlatlarning birdek yakdilligini namoyon etmoqda. Uchinchisi esa – BMT minbaridan yangrayotgan O'zbekistonning xalqaro huquqiy tashabbuslari, aksariyat hollarda, bir ovozdan qabul qilinmoqda. Bu davlatimiz Rahbarining g'oyalarini o'zida mujassam etayotgan xalqaro huquqiy tashabbuslarning xalqaro miqyosdagi e'tirofidir.

**Muhokama**

Umuman olib aytganda, so'nggi paytlarda O'zbekiston tashabbusi bilan ishlab chiqilgan va BMT Bosh Assambleyasi tomonidan ma'qullangan rezolyutsiyalar soni 13 taga etdi. Ahamiyatlisi, ulardan 5 tasi g'oyat qisqa vaqt ichida – 2024–2025-yillar mobaynida qabul qilindi. Bu natijalar Yangi O'zbekiston diplomatiyasining yutuqlaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

Bundan tashqari, BMTning boshqa bir tuzilmasi – Butunjahon turizm tashkiloti (BTT) Ijroiya kengashining 2024-yil iyun oyida Barselonada bo'lib o'tgan 121-sessiyasida O'zbekistonning Global xavfsiz turizm kodeksini ishlab chiqish bo'yicha hukumatlararo komissiya tuzish tashabbusi bir ovozdan ma'qullandi. Global xavfsiz turizm kodeksini ishlab chiqish va qabul qilish g'oyasi, dastavval, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2023-yil oktyabr oyida Samarqandda bo'lib o'tgan Butunjahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasining 25-sessiyasida bildirilgan edi.

Bugungi kunda dunyoning turli mintaqalarida kuzatilayotgan ziddiyatlar va beqaror vaziyat turizm rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan bir paytda taklif etilayotgan kodeks turizmni barqaror rivojlantirish vositalaridan biriga aylanishi


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

va atrof-muhitni muhofaza qilish hamda madaniy merosni asrab-avaylash boʻyicha zarur chora-tadbirlarni oʻz ichiga olishi kutilmoqda.

Xalqaro huquqiy tashabbuslar bilan bir qatorda Oʻzbekistonning xalqaro miqyosdagi tashkiliy-institutsional tashabbuslari ham keng jamoatchilik e'tiboriga sazovor boʻlmoqda. Ularga misol sifatida BMT huzurida Afgʻoniston boʻyicha xalqaro hamkorlik qoʻmitasini tashkil etish, BMT shafeligida Markaziy Osiyoda transport-kommunikatsiya aloqalarini rivojlantirish mintaqaviy markazini ochish, BMT Bosh kotibining Suv resurslari boʻyicha maxsus vakili institutini ta'sis etish, BMTning Yoshlar huquqlari boʻyicha maxsus ma'ruzachisi lavozimini joriy qilish kabi takliflarni keltirish mumkin.

Ayni paytda, Oʻzbekiston xalqaro huquqda norma ijodkorligi platformasi vazifasini bajaruvchi bir qator xalqaro konferensiyalarga doimiy mezbonlik qilib kelmoqda. 2025-yilning 30-oktyabr – 13-noyabr kunlari Samarqandda boʻlib oʻtgan BMTning Ta'lim, fan va madaniyat masalalari boʻyicha tashkiloti – YUNESKOning 43-Bosh konferensiyasi, 2025-yil aprel oyida tashkil etilgan birinchi Samarqand xalqaro iqlim forumi hamda "Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi" birinchi sammiti, 2018-yildan boshlab har ikki yilda oʻtkazib kelinayotgan Inson huquqlari boʻyicha Samarqand forumi va boshqalar shular jumlasidandir. Xususan, 2018-yil noyabrida boʻlib oʻtgan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganining 70 yilligi yakunlari: zamonaviy tahdidlar va real voqelik" mavzusiga bagʻishlangan I Samarqand forumida qabul qilingan Inson huquqlari boʻyicha Samarqand deklaratsiyasi BMT Bosh Assambleyasining 73-sessiyasi hujjati sifatida tasdiqlandi. "Yoshlar – 2020: global birdamlik, barqaror rivojlanish va inson huquqlari" mavzusida 2020-yil 12–13-avgust kunlari tashkil etilgan II Samarqand veb forumining yakuniy rezolyutsiyasi BMT Bosh Assambleyasi 74-sessiyasining rasmiy hujjati sifatida tashkilotning rasmiy tillariga tarjima qilingan holda BMTning rasmiy hujjatlar tizimida A/74/998 raqami ostida joylashtirildi. Samarqand forumi doirasida inson huquqlarining "Samarqandcha ruhi" negizida inson huquqlarini himoya qilish boʻyicha Osiyo mintaqaviy mexanizmining xalqaro huquqiy asoslari shakllanmoqda.

Qisqacha qilib aytganda, Oʻzbekiston Prezidenti tomonidan BMT Bosh Assambleyasining 72, 75, 76 va 78-sessiyalarida, shuningdek, BMT Inson huquqlari boʻyicha kengashining 46-sessiyasida va boshqa xalqaro anjumanlarda Markaziy Osiyoning barqaror rivojlanishi, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, ta'lim, ma'naviyat, ekologiya, turizm, inson huquqlarini himoya qilish va boshqa sohalarni qamrab oluvchi 40 dan ortiq tashabbuslar ilgari surildi. Shuningdek, BMT va BMT oilasiga kiruvchi tashkilotlar bilan hamkorlikda qariyb 140 ta dastur va loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda (Saidov, 2023).

Yuqoridagi misollardan kelib chiqib, Oʻzbekistonning xalqaro huquqiy tashabbuslarini shartli ravishda 3 turkumga ajratish mumkin: xalqaro huquq norma ijodkorligi sohasidagi tashabbuslar; xalqaro tashkilotlar doirasidagi "yumshoq huquq" tashabbuslari hamda xalqaro tashkiliy-huquqiy sohadagi tashabbuslar.

Shuningdek, Oʻzbekistonning xalqaro huquqiy tashabbuslarini muayyan sohalar kesimida savdo-iqtisodiy, transport-logistika, atrof-muhit muhofazasi va iqlim oʻzgarishlari, suv zaxiralaridan foydalanish, global va mintaqaviy xavfsizlik, ilmiy-madaniy hamkorlik va boshqa yoʻnalishlar boʻyicha tasniflash mumkin. Ular orasida, ayniqsa, inson huquqlari sohasidagi Oʻzbekistonning xalqaro huquqiy tashabbuslari jahon hamjamiyati e'tiborini tortmoqda. BMT va IHT doirasida ilgari surilgan yoshlar huquqlariga oid xalqaro huquqiy tashabbuslarning mazmuni koʻrsatib turganidek, oxirgi yillarda Oʻzbekiston tom ma'noda yoshlar huquqlarining xalqaro darajadagi targʻibotchisi va homiysi sifatida namoyon boʻlmoqda.

Oʻzbekistonning xalqaro huquqiy tashabbuslari ilgʻor xalqaro tajribalar hamda milliy davlatchiligimizning azaliy qadriyatlari negizida ilgari surilayotgani ham oʻziga xoslik kasb etadi. Ushbu tashabbuslarining BMT tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan hamohangligi diqqatga sazovordir.

**Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda yanada jadallashib borayotgan globallashuv jarayonlari har bir davlatning xalqaro hamjamiyatga har tomonlama integratsiyalashuvini talab qilmoqda va oʻzarolik tamoyili asosida keng savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnologik va madaniy hamkorlik imkoniyatlarini taqdim etmoqda. Oʻzbekistonning

xalqaro huquq normalariga asoslangan tashabbuslari xalqaro xavfsizlik va tinchlik, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-madaniy taraqqiyot uchun mustahkam zamin boʻlib xizmat qilmoqda.

Oʻzbekistonning xalqaro tashabbuslari mamlakatimizning xalqaro nufuzini oshirmoqda, xalqaro tashkilotlardagi mavqeyini mustahkamlamoqda. Xususan, 2021–2023-yillarda Oʻzbekiston BMT Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) Ijroiya kengashining aʼzosi boʻldi, 2024-yilning iyun oyida oʻz tarixida birinchi marta 2025–2027-yillar uchun BMT Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi aʼzoligiga, Xalqaro mehnat konferensiyasining 112-sessiyasi doirasida XMT Maʼmuriy kengashining aʼzosi oʻrinbosarligiga, 2025-yilning 28-aprelida Nyu-York shahrida boʻlib oʻtgan BMT Statistika Komissiyasining 2026–2029-yillarga aʼzo davlatlarini saylash jarayonida ilk marta 4 yil muddatga ushbu organ aʼzoligiga, 2026-yilning aprel oyida Nyu-York shahrida BMT Iqtisodiy va ijtimoiy kengashining (ECOSOC) sessiyasi doirasida boʻlib oʻtgan saylovda ilk bor BMTning Jinoyatchilikning oldini olish va jinoiy odil sudlov masalalari boʻyicha komissiyasiga 2027–2029-yillar davri uchun aʼzo etib saylandi.

Mamlakatimiz 2020-yil kuzida ilk bor 2021–2023-yillar uchun BMT Inson huquqlari boʻyicha kengashiga saylangan edi. 2024-yilning 29-may kuni BMTning Nyu-Yorkdagi qarorgohida Fuqarolik va siyosiy huquqlar toʻgʻrisidagi xalqaro paktga aʼzo davlatlarning 40-sessiyasi doirasida qoʻmitaning toʻqqiz nafar aʼzosi qatorida Oʻzbekiston vakili – Inson huquqlari boʻyicha Milliy markaz direktori, akademik A. Saidov tarixda birinchi marta 2025–2028-yillar uchun BMT Inson huquqlari qoʻmitasiga saylandi. Unga qadar Oʻzbekistonning ushbu vakili IHTning 2011-yilda tashkil etilgan doimiy asosda faoliyat koʻrsatuvchi Inson huquqlari boʻyicha mustaqil komissiyasi aʼzosi va raisi sifatida faoliyat koʻrsatgan edi. 2025-yilning 21–22-iyun kunlari Turkiyaning Istanbul shahrida boʻlib oʻtgan Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) Tashqi ishlar vazirlari kengashining 51-sessiyasida Oʻzbekistonning yana bir vakili – Inson huquqlari boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Milliy markazi direktorining birinchi oʻrinbosari M. Tillaboyev 2025–2028-yillar uchun uch yil muddatga IHT Inson huquqlari boʻyicha mustaqil doimiy komissiyasiga aʼzo etib saylandi. Qoʻlga kiritilayotgan mazkur muvaffaqiyatlar davlatimizning xalqaro faolligini yanada oshirish imkonini beradi.

Xalqaro xavfsizlik va barqaror tinchlikni qaror toptirish sohasida Oʻzbekistonning izchil pozitsiyasi va tashabbuslari global tanglikni yumshatish va qurolli toʻqnashuvlarning oldini olishga qaratilgan. 2026-yilning 19-yanvar kuni Davlatimiz rahbari BMT Xavfsizlik Kengashining 2025-yil 17-noyabrdagi 2803-sonli rezolyutsiyasi bilan maʼqullangan Gʻazodagi mojaroni tugatish boʻyicha xalqaro tashabbusga shaxsan taklif etildi va mamlakatimiz xalqaro Tinchlik kengashining taʼsischilaridan biriga aylandi.

Oʻzbekistonning ushbu tuzilmalarning aʼzosi etib saylanishi mamlakatda Prezident rahbarligida amalga oshirilayotgan keng koʻlamli islohotlarning xalqaro miqyosda tan olinganligini va mamlakatning global jarayonlardagi oʻsib borayotgan rolini koʻrsatadi.

Oʻzbekiston 2027–2029-yillarda xalqaro Qoʻshilmaslik harakatiga raislik qiladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xavfsizlik Kengashining 2035–2036-yillarda faoliyat koʻrsatuvchi doimiy boʻlmagan aʼzoligiga Oʻzbekiston nomzodi ilgari surilmoqda. BMT nizomiga muvofiq, Bosh Assambleya tomonidan Xavfsizlik Kengashining doimiy boʻlmagan aʼzoligiga saylanish uchun nomzod davlatning xalqaro tinchlik va xavfsizlikni taʼminlashda hamda Tashkilotning boshqa maqsadlariga erishishdagi faol ishtiroki asosiy mezon hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, Oʻzbekistonning Gʻazoda tinchlik va barqarorlik oʻrnatish yoʻlidagi saʼy-harakatlari va tashabbuslari ushbu ulkan maqsadlarni roʻyobga chiqarish uchun siyosiy sarmoyadir. Qolaversa, Yaqin Sharq mintaqasi oʻzining nafaqat diniy va madaniy yaqinligi, balki savdo-iqtisodiy ahamiyatiga koʻra ham milliy manfaatlarimiz bilan toʻla uygʻunlik kasb etadi.

Markaziy Osiyoning eng koʻp nufusli mamlakati boʻlmish Oʻzbekistonning xalqaro huquqiy tashabbuslari shu bilangina cheklanib qolmasligi lozim. Mintaqamizdagi transchegaraviy daryolar suvidan foydalanish, Orol boʻyidagi ekologik inqiroz, tashqi mehnat migratsiyasi, iqlim oʻzgarishlari bilan bogʻliq tabiiy muhit va boshqa omillar yanada keng jabhali va chuqur xalqaro hamkorlikni talab etmoqda. Bunday hamkorlikni amalga oshirish negizida esa birinchi navbatda, xalqaro huquq meʼyorlari yotadi. Shunday ekan, mintaqadagi


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

xalqaro hamkorlikning istiqbollari yangidan yangi xalqaro huquqiy tashabbuslarga bogʻliq.

Oʻzbekistonning xalqaro va mintaqaviy miqyosdagi xalqaro huquqiy tashabbuskorligini oshirish va xalqaro norma ijodkorligidagi ishtirokini yanada faollashtirish maqsadida bir qator taklif va tavsiyalarni ilgari surish mumkin.

Birinchidan, Oʻzbekistonda xalqaro shartnomalarning konstitutsiyaviy maqomini yanada mustahkamlash lozim, chunki xalqaro shartnomalar zamonaviy xalqaro huquq norma ijodkorligi va xalqaro huquqiy tashabbuslarning eng keng tarqalgan mahsuli va natijasi hisoblanadi. Bugungi kunda Oʻzbekiston tomonidan imzolangan va ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalar soni 5 mingdan ziyodni tashkil etadi. Xalqaro shartnomaviy-huquqiy amaliyot tobora kengayib borayotganiga qaramay asosiy qonunimizda xalqaro shartnomalarga oid alohida normalar tizimi mavjud emas. Xorijiy tajribalarga nazar solsak, 1958-yil 4-oktyabrda qabul qilingan va hozirgi kunda amal qilib kelayotgan Fransiya konstitutsiyasida “Xalqaro shartnomalar va bitimlar toʻgʻrisida” deb nomlanuvchi alohida boʻlim (VI boʻlim) mavjud boʻlib, uning 52–55-moddalarida xalqaro shartnomalarning turlari, muzokara olib borish, shartnomalarni ratifikatsiya qilish va kuchga kiritish tartibi bayon etilgan (Conseil constitutionnel, 2024).

Jahon tajribasidan kelib chiqqan holda Konstitutsiyamizning xalqaro shartnomalarga oid normalarini yanada takomillashtirish maqsadida IV bob (“Tashqi siyosat”)ni xalqaro shartnomalarga oid yangi moddalar bilan boyitish yoki xalqaro shartnomalarga oid normalarni alohida bob shaklida tizimlashtirish, muzokaralar olib borish tartibi va xalqaro shartnoma majburiyatlariga nisbatan davlatimiz roziligini ifoda etish usullarini Asosiy qonunda yaqqol aks ettirish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, Oʻzbekistonning xalqaro norma ijodkorligidagi ishtirokining konseptual va institutsional mexanizmlarini yanada takomillashtirish taklif etiladi. Shu maqsadda, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy majlisi deputatlari, Senat a’zolari, Hukumat vakillari, Tashqi ishlar va Adliya vazirligining xodimlari, xalqaro huquq sohasiga ixtisoslashgan oliy yuridik ta’lim professor-oʻqituvchilari, sohada tadqiqotlar olib borayotgan olimlar va mutaxassislar ishtirokida maxsus markaz tashkil etish hamda uning faoliyatini qoʻllab-quvvatlash, xalqaro norma ijodkorligi sohasida xalqaro tashkilotlarning tegishli tuzilmalari bilan maqsadli hamkorlikni yoʻlga qoʻyish muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, xalqaro norma ijodkorligi sohasida oʻquv-uslubiy qoʻllanmalar yaratish, xalqaro “qonunchilik” texnikasiga oid bilim va koʻnikmalarni shakllantirish va takomillashtirish sohasida ilmiy-amaliy seminarlar, treninglar tashkil etish hamda axborot-targʻibot ishlarini tizimli tashkil etish tavsiya etiladi.

Buning natijasida Oʻzbekistonning xalqaro maydondagi ovozi yanada baralla yangraydi, ular orqali xalqaro miqyosda milliy manfaatlarimiz toʻlaqonli himoya qilinadi, mamlakat nufuzi yuksaladi, xalqimizning xalqaro huquqiy savodxonligi oshadi, Oʻzbekiston milliy huquqi tizimining xalqaro huquq bilan integratsiyalashuvi chuqurlashadi. Eng muhimi, jahonda tinchlik, hamjihatlik, barqaror rivojlanish va xalqaro huquqiy tartibot istiqboliga munosib hissa qoʻshiladi.

## REFERENCES

Axmadov, O. (2021). Oʻzbekiston va IHT: Serqirra munosabatlarning hamda inson huquqlari sohasidagi hamkorlikning rivojlanish tendensiyalari [Uzbekistan and the OIC: Trends in the development of multifaceted relations and cooperation in the field of human rights]. *Democratization and Human Rights, 4*(92), 35–37.

Bekyashev, K. (2003). *Mezhdunarodnoe publichnoe pravo* [International public law]. Prospekt.

Conseil constitutionnel. (2024). *Texte intégral de la Constitution du 4 octobre 1958 en vigueur à jour de la révision constitutionnelle du 8 mars 2024* [Full text of the Constitution of 4 October 1958, updated to the constitutional revision of 8 March 2024]. https://www.conseil-constitutionnel.fr/le-bloc-de-constitutionnalite/texte-integral-de-la-constitution-du-4-octobre-1958-en-vigueur

Klabbers, J. (2021). *An introduction to international institutional law* (3rd ed.). Cambridge University Press.

Lukashuk, I. I., & Saidov, A. X. (2006). *Hozirgi zamon xalqaro huquqi nazariyasi asoslari* [Fundamentals of the theory of contemporary international law]. Adolat.

Maxamatov, M. (2024). *Xalqaro tashkilotlar huquqi* [Law of international organizations]. TSUL Publ.

Ministry of Foreign Affairs of the Republic of Uzbekistan. (2026). *O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati* [Foreign policy of the Republic of Uzbekistan]. https://gov.uz/oz/mfa/sections/view/14455

Mo'minov, A. R. (2019). *Xalqaro tashkilotlar huquqi shakllanishining nazariy masalalari* [Theoretical issues of the formation of the law of international organizations]. TSUL Publ.

Norboyev, O. (2024). *Giyohvandlikka qarshi kurash: Milliy, mintaqaviy va xalqaro tashabbuslar ijobati* [Combating drugs: National, regional and international initiatives]. http://nhrc.uz/uz/news/m13559

President.uz. (2017). *Address at the 72nd session of the United Nations General Assembly*. Official Website of the President of the Republic of Uzbekistan. https://president.uz/en/lists/view/1063

President.uz. (2020). *Address at the 75th session of the United Nations General Assembly*. Official Website of the President of the Republic of Uzbekistan. https://president.uz/en/lists/view/3851

President.uz. (2024). *O'zbekiston tashabbusi bilan 2027-yil Xalqaro barqaror va yashovchan turizm yili deb e'lon qilinadi* [The year 2027 will be declared the International Year of Sustainable and Resilient Tourism at the initiative of Uzbekistan]. https://president.uz/uz/lists/view/7054

President.uz. (2026, January 15). *Tashqi ishlar vazirligi va xorijdagi diplomatik vakolatxonalar faoliyatini yangicha tashkil qilish vazifalari belgilab olindi* [Priorities on upgrading the activities of the Ministry of Foreign Affairs and foreign diplomatic missions determined]. Official Website of the President of the Republic of Uzbekistan. https://president.uz/en/lists/view/8861

Saidov, A. (2023). *Yangi O'zbekiston – barqaror rivojlanish yo'lidagi parlament odimlari* [New Uzbekistan: Parliamentary steps towards sustainable development]. https://parliament.gov.uz/oz/articles/1861

Sands, P., & Klein, P. (2009). *Bowett's law of international institutions* (6th ed.). Sweet & Maxwell.

Shaw, M. N. (2017). *International law* (8th ed.). Cambridge University Press.

Tashkent Times. (2022, September 19). *SCO countries are committed to building a fairer world order – Samarkand Declaration.* https://tashkenttimes.uz/national/9632-sco-countries-are-committed-to-building-a-fairer-world-order-samarkand-declaration

United Nations General Assembly. (2018, December 12). *Resolution A/RES/73/128: Enlightenment and religious tolerance*. https://undocs.org/en/A/RES/73/128

United Nations General Assembly. (2023, December 19). *Resolution A/RES/78/147: Central Asia facing environmental challenges: Fostering regional solidarity for sustainable development and prosperity*. https://documents-dds-ny.un.org/doc/UNDOC/GEN/N23/418/81/PDF/N2341881.pdf?OpenElement

United Nations General Assembly. (2024a, February 26). *Resolution A/RES/78/260: International Year of Sustainable and Resilient Tourism, 2027*. https://docs.un.org/en/A/RES/78/260

United Nations General Assembly. (2024b, June 4). *Resolution A/RES/78/284: Central Asia's unified resolve and cooperation to effectively address and counter drug-related challenges*. https://docs.un.org/en/A/RES/78/284

United Nations General Assembly. (2024c, June 7). *Resolution A/RES/78/286: International Day for Dialogue among Civilizations*. https://docs.un.org/en/A/RES/78/286

United Nations General Assembly. (2025a, April 16). *Resolution A/RES/79/283: United Nations Decade for Afforestation and Reforestation in line with Sustainable Forest Management (2027–2036).* https://docs.un.org/en/A/RES/79/283

United Nations General Assembly. (2025b, April 29). *Resolution A/RES/79/285: International Day in Memory of the Victims of Earthquakes*. https://docs.un.org/en/A/RES/79/285

# YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
# ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
# REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal
Правовой научно-практический журнал
Legal scientific-practical journal

**2026-yil maxsus son**

VOLUME 10 / SPECIAL ISSUE / 2026
DOI: HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.ROLS.2026.10.SI.